

Isajon Sulton

ABU RAYHON BERUNIY

tarixiy-biografik roman



Toshkent – 2022

YETTINCHI QISMI DAVOMI



GURGANJ. BILIM SALTANATI

Issiq yoz kunlarining birida Abu Rayhon menga qog'oz va qalam keltirishni buyurdi. Aytilganlarni o'rinalat-ganimdan so'ng, ba'zi hisob-kitoblarini tamomlab:

- Sha'bonning yigirma ikkinchisida! – dedi baland ovoz bilan.
- Qara, ey Abu Fazl! Sha'bonning yigirma ikkinchisida Oy to'la tutiladi. Biz buni al-Buzjoniya bildirishimiz kerak. Sen uning izzatiga mos Samarqandqog'ozi keltir.

Samarqand qog'ozi tugagan edi. Bundan Abu Rayhonningjahli chiqdi, vaqtida qaramaganim uchun meni koyib, bozordan olib kelishimni tayinladi.

Bozor yaqin joyda edi, tezda ikki o'ram Samarqand qog'ozi keltirdim. Al-Beruniy uning sifatini tekshirib ko'rdi, qanoat hosil qilgach, al-Buzjoniya maktub bitdi.

Maktub shunday edi:

"Damashqning yetuk kishilaridan al-Buzjoniya salomlar bo'lsin.

Mening hisoblarimga ko'ra, Oyning to'la tutilishi sha'bonning yigirma ikkinchi kuni sodir bo'ladi. Buni o'z hisoblarining orqali tekshirib ko'rishing mumkin. Senga iltimosim shuki, men xabar bergen kunda o'ta aniqlik bilan Oy tutilishining boshlanish va tugash vaqtini belgilasang hamda u raqamlarni menga bildirsang. O'z navbatimda men ham senga ayni hodisaning Gurganjdag'i vaqtlarini yozib yuboraman. Bu ishning hosilasi esa, senga, albatta, ma'lumdir".

Maktubni chirmab, Damashqqa boradigan karvonga eltib berishimni buyurdi.

Maktublar so'rg'ichlanganidan so'ng, kichik bir mato parchasiga manzil va oluvchining ism-sharifi yozilib, sandiqqa solinardi. Abu Rayhon manzil o'laroq Damashqning Odiliya madrasasini ko'rsatishimni buyurdi. Gurganjda bu vaqtda o'n ikkita karvonsaroy bo'lib, Damashqqa yo'l oladigan karvonlar shahar janubidagi Aymaz karvonsaroyidan jo'nar edi. Maktubni u yerga eltib berdim. Karvonsaroy egasichirmalgan xatni va xizmat haqini olgach, uni boshqa maktublar qatoriga qo'shib:

Erta tongda ibn Xolidning karvoni Rumga jo'naydi, – dedi.
– Men sening maktubingni uning karvoni bilanyuboraman.

Maktub vasiqasini olib qaytganimda, Abu Rayhonhanuz bog'chada edi. Unga karvonsaroy egasining so'zlarini aytdim.

– Agar yo'lda talonchilarga duch kelmasa, maktub ikki oyda yetib borar emish.

– Bu muhllat biz uchun kifoya. Ey Abu Fazl, sen bu ishlarning barchasi o'lchov va hisob-kitob bilan bo'ladi deb o'yladingmi? Aslo yo'q. Kashflar fikr yuritish bilan ro'y beradi. Mana, qara!

U taxtaga bir doira chizdi.

Avval Arastu, so'ng Batlimus, ikkalovi ham Quyosh Yer atrofida aylanadi, deb yozdi. Ustozim Mansur ibn Iroq esa "och" yulduzlar Quyosh tabiatiga ega ekanini, "to'q" yulduzlar esa, Yer kabi, sayyora ekanini aytdi. Ya'ni Atorud, Mirrix va Zuhal yoritqich emas, sayyoradir. Ey Abu Fazl! Menga ayt-chi, etni pishirish uchun olovni uning atrofida aylantirasamni yoki etni olovga toblaysanmi?

– Etni olovga toblaydilar, bu hammaga ayon-ku!

– Quyosh va Oyning Yer atrofida aylanishi haqidagi faraz, bu ikki yoritqich faqat Yerga xizmat qilganidagina to'g'ri bo'lib chiqadi. Biroq u holda, "to'q" yulduzlar Quyosh haroratidan bebahra qoladilar. Lekin shuni bilamizki, falak ham aylanadi. Xo'sh, seningcha, yulduzlar olisdaligi tufayli yer atrofini shuncha uzoq vaqt aylanib chiqadi, deb o'ylaysanmi?

– Azbaroyi xudo, bir nima deyishga ojizman, – dedim men.

– Bahri muhitda g'alati bir hodisa ro'y beradi, – dedi u. – Sohilda yashovchi kishilar u hodisani aniq bilihadi va undan foydalanishadi. Yahudiylarning shanba kuni baliq ovlashdag'i hiylasidan xabaring bormi? Ularga shanba kuni baliq ovlash taqiqlab qo'yildi. Bu o'ta aniq rivoyatdir. Kishilar avvaliga bu hukmga rozi bo'lishdi, biroq aynan shanba kuni daryoda baliq benihoya ko'p kela boshladi. Shunda ular sohilga chuqurlar qazib qo'yishdi, chuqurlar shanba kuni oqib kelgan baliqlarga to'lib qolganida, yakshanba tongida kelib, ularni to'plab olib ketishdi. Gap bu yerda men aytgan hodisa – suv qalqishi haqida bormoqda. Tunda suv ko'tarilib, bir qancha masofani bosadi, tongda esa qaytadi. Qani, ayt-chi, bu hodisaning sababi nima bo'lishi mumkin?

Oy! – deb javob qildi uning o'zi. – Men uni turli vaziyatlarda kuzatdim. Qizig'i shundaki, oy shaklining o'zgarishi yoki uning tutilishi suv ko'tarilishiga ta'sir qilmadi. Bu nimani bildiradi?

Uning savollariga qanday qilib javob bera olardim? Aqlim go'yo qorong'i zulmat ichida tentirardi.

– Oy shakli o'zgargani yoki u tutilganida Oyning o'zida biron o'zgarish ro'y bermaganini bildiradi! – deb xitob qildi u. – Ammo biz Oy tutilgani mahalda unga nimaningdir soyasi tushishiga va u soyaning aylana shaklda ekaniga guvoh bo'lganmiz. Oyga Yerning soyasi tushgani aniq. U soyaning aylana shaklda ekanligi esa...

Abu Rayhon mening javobimni kutib, kulimsirab qarab turardi.

Uning so'zлari xayolimda bir-birini to'ldirib tizilaboshladi. "Kullun fi falaki yasbaxun" qavli sayyoralar falakda muallaq suzib yurishlaridan xabar berdi... Oyga Yerning soyasi tushdi... U soyaning aylana shakldaekanligi esa... Birdaniga ongimda chaqin chaqnaganday bo'ldi. Hayajonimdan o'rnimdan turib ketdim:

– Subhanalloh! Yer... dumaloqmi?

Abu Rayhon javob qilmadi.

Hayajonimni bosolmas edim. Zehnim chaqmoq shiddatida turli taxminlarni izlay boshladi. Oyga Yerning soyasi tushdi! Bu ne demak? Oy tutilganida uning gardishi ko'riniб turadi. Uning hiloldan to'lin oyga o'zgarishining sababi ham kurrai arzmi?

Bilish va kashf qilishning lazzati vujudimni o'rab oldi. Yo Allah! Bu mashaqqatli ishda bunchalar huzur borligi xayolimga ham kelmagan edi. Go'zallar suhbati, may kayfiyati yoxud o'limchil jangu jadallardaqozonilgan g'alaba sururi bu lazzat oldida hech nimaemas edi!

– Endi tushungandirsan, olimlarning shohlarga hojati yo'qligini va aksincha, shohlarning olimga ehtiyoji borligini?

Nechun tushunmay? Ayni damda men inson bolalari aqlu zakovatining chegarasida edim. Men turgan joydan ortga qaralsa, kishilik erishgan turli-tuman bilimlar xazina singari sochilib yotar, ro'paramda esa poyonsiz mavhumliklarning zulmat hududlari turar, ularga aql-zakovat nuri tutilsa, ne sir-sinoatlar namoyon bo'lishi yolg'iz Tangrigagina ayon edi.

Mendagi hayajonni ko'rgan Abu Rayhon yelkamga qo'lini qo'yib, mehribonlik bilan dedi:

Bilim dunyosiga xush kelding, birodarim Abu Fazl!

- Hurmatim zo'ridan qarshisida egilib, to'nining etagini tavof qildim va chin ko'ngildan shunday dedim:
- Allohga qasamki, endi sizdan sira ayrilmayman va aytgan istaklariningizni beminnat o'rinalatgayman. Bir mahallar men qul edim. Endi yana qul bo'ldim, faqat bu galgi xojam aqlu zakovat sarvari, barcha ustozlarning ustozini bo'ldi!
- O'zingni bunday atama! – dedi Abu Rayhon. – O'smirlig chog'imda Yadi id ibn Yunon degan qo'shnim bor edi. O'sha kishi menga Tangri taolo bandalarining qul qilinishi Iblisning hiylasi ekanini aytib bergan edi. Keyinchalik men Tavrotni ham, Injilni ham o'qib chiqdim, bunday so'zlarni u kitoblarda uchratmadim. Biroq Yadi id aytdiki, bu ishning ortida qanchalar quvvatli aql borligini ko'rmayapsanmi? Shu sababli, shayton yo'rig'iga yurma va hurlik holingda men bilan hamnafas bo'l, shu yetarli!

Shundan so'ng u menga Yerning hajmini qanday o'lchash kerakligini tushuntirib berdi.

– Ona sayyoraning hajmini yunonliklar taqvimi bo'yicha Hoziron oyining o'n to'qqizinchi kuni o'lchay olasan. Yunonlar bu kunni "Quyoshning tik turib qolish kuni" deb atashadi, – dedi u. – Hijriy taqvimda esa, u kunni aniqlash uchun har yili o'zgarishlar kiritishingga to'g'ri keladi, chunonchi, bu yil u kun rabiul-a'lo oyining yigirma beshinchisiga, keyingi yil esa rabius-soniyning beshinchisiga to'g'ri keladi. Demak, bunday o'lchov uchun bir yilda bir marta imkon bo'ladi.

O'lchovda Eratustinus¹ usulini qo'llaysan. U Iskandarun bilan Asvon shahri bir chiziqda joylashgan, deb o'ylardi. Shu sababli, Asvonda kun tikkada turib qolgan paytda soyalarni o'lchash kifoya, deb hisoblardi.

Iskandarun bilan Asvonda quyoshning tikkaga kelish vaqtı quyosh soati aylanasining ellikdan biriga to'g'ri keldi. Olim uchun shu yetarli bo'ldi, chunki Iskandarun bilan Asvon orasidagi masofa ma'lum – bizning hisobga ko'ra, bir yuz sakson farsah edi. Shu tariqa, yer kurrasining aylanasi to'qqiz ming farsah ekanini osongina hisoblash mumkin bo'ladi.

– Bor-yo'g'i-ya?! – dedim eshitganlarimga ishonmay. – Yer kurrasining aylanasi bor-yo'g'i shuginami?

Abu Rayhon kulib yubordi.

– Bu, bir karvon kuniga to'rt farsah yo'l bosdi, desang,u yer yuzini o'ttiz to'rt yildan ziyodroq vaqt ichida aylanib chiqadi, degani!

Uning so'zлari mening holatimni yengillashtirmadi. Gurganjdan Damashqqacha bo'lgan uzundan-uzoq yo'lni va undagi manzaralar o'zgarishini ko'z oldimga keltirsam ham, azbaroyi Xudo, yorug' olamni bunday kichik deb o'ylamagan edim.

* * *

Abu Rayhonning so'zlaridan so'ng bilim olmoq shavqi butun o'y-xayolimni egallab oldi. Bungacha bir qancha mablag' jamg'arib, do'konlar ochishni va Rum yoki Hindistondan anvoyi mol-matoh olib kelib sotishni mo'ljallab yurardim. Boyish istagim shundan so'ng tamomila g'oyib bo'ldi, o'zim ham Abu Rayhon singari, oddiy hayot kechirish yo'lini istay boshladim.

Oimlarning birontasi dunyo moliga ruju' qilmagani meni lol qoldirardi. Bular shu damda yorug' dunyoning eng zakovatli kishilari bo'lib, ularning tafakkur qudrati haqida keyinroq yana so'zlab beraman. Ammo, ayni paytda zamona kishilari haqida so'zlashning fursati deb bilganim uchun, yon-verimdagи o'zim bilgan odamlarning tutumlariga, istak va niyatlariga to'xtalib o'tmoqchiman.

¹ Eratosthenes – Eratosthenes.

Bizning zamona kishilari uy-joylarini qimmatbaho buyumlarga to'ldirib, maqtanishni yaxshi ko'rishadi. O'zim ham orasta bir ravza¹ sotib olishni, uni ajoyib qilib bezatib, qullar va joriyalarimni ko'paytirib, qimmatbaho arg'umoqda Gurganj ko'chalarini kezib yurgim kelardi. Endilikda o'ylab qarasam, bu ishim

- o'zgalardan o'zgacha ekanimni, Tangri taolo shu bois menga mol-mulk ato etganini ko'z-ko'zlash istagimdankelib chiqqan ekan. Bunday hirsu havas hammada bor, misol uchun, taxtiravonini to'rt qul ko'tarib ketayotgan davlatmandlarni deyarli har bir shaharda uchratsa bo'ladi. Ayni shu tutum "men hammadan ko'ra boshqachaman" degan hirsdan kelib chiqadi. Yo'qsa, aravada yoki mihaftada bemalolroq yura olgan bo'lmasmidi? Oltin yopinchiqli arg'umoqlar, tilla bilan bezatilgan qilich va qamchilar, gavhar qadalgan kamarlaru hech kimda yo'q noyob matodan tilla ip bilan tikilgan liboslarning bari o'sha xayol tufaylidir.

Men bilgan olimlar esa jahonda tengi yo'q risolalarini yaratar ekanlar, birontasining mol-dunyoga havasi yo'q edi. Buning qanchalar nodir hodisa va noyob fazilat ekanini tushunib turgandirsiz?

Sha'bonning boshida "Dorul-hikma"ga tabib Husayn ibn Sino yetib keldi. Men uni o'rta yoshli bir kishi deb xayol qilgan edim. Abu Hasan Miskavayh va Abu Sahl Masihiy uni tanishtirishganida, endigina mo'ylabi qoraygan yosh yigitni ko'rib, hayratda qoldim.

Abu Ali qanaqa ekan?

Bo'yi uzun, yelkalari to'g'ri, jussasi ozg'inga moyil, ammo paydor, bilaklari kuchli ekan. Yuzi oq, soqoli shu yoshdag'i o'smirlarga xos qop-qora, siyrak va ko'rkli, qoshlari yoysimon va bir-biriga xiyol tutashgan, burni qirrali va uzun, iyagi ingichka, ko'zlarida zehn balqigan g'ayratli yigitcha ekan.

¹ Ravza – bog', bog'cha



Barcha tabiblar ojiz qolgan mahalda, Buxoro hukmdori Abu Nasrni davolaganidan so'ng shuhrat topganidan hamma xabardor edi. Mansur ibnIroq mashvaratxonaga u bilan birga kirib kelganida, ko'pchilik "bu kim bo'ldi ekan" degan xayolga bordi. Mansur ibn Iroq Buxoroda isyon yuz berganini va Abu Nasr xonadoniga yaqin kishilar Buxorodan qochib, o'zga yurtlarga ketishga majbur bo'lganini aytib:

– Taqdirning ishlarini ko'r! Sening Gurganjga kelmog'ing uchun bir sultanatni qulatdi! – dedi lutf qilib. – Barchangizga uning suhbatи muyassar bo'lgay. Senga Abu Sahl Masihiyni murabbiy qilib tayinlaymiz.

Tanishtirish marosimi tugagach va hamma o'z mammuniyatini izhor etgach, u Abu Rayhon qoshiga keldi.

– "Osor ul-boqiya"ni yaratgan senday kishining Arastu haqidagi shubhalaringga hayronman, – dedi Abu Ali, o'zidan sakkiz yosh katta Abu Rayhonga. – Endi uzundan- uzoq maktub yozishday mashaqqatdan xalos bo'ldik, inshaalloh, sen aytgan masalalarning tubiga qadar bahslashgaymiz.

Abu Rayhon uning dag'alligidan ranjimadi, qaytanga, takallufsiz so'zlar unga ma'qul keldi.

– Sen Abu Nasr Forobiyning, men esa Mansur ibn Iroqning shogirdiman, – deb javob qildi u. – To'g'riyatasan, "Al-Majistiy" ustida hali ancha savollarim bor.

Ma'lum narsalar ustida bahslashish joizmi? Sen bilan quvvai tabiiya haqida bahslashamiz, – Abu Aliga qolsa, hozirning o'zidayoq Abu Rayhonning farazlariga e'tiroz bildirmoqchi edi.

– Qat'iyatingni fahmlab turibman. Biroq, biroz istirohat qilib, hakimlar va shoirlar bilan yaxshiroq tanishib olganing durust.

Shu tariqa, Abu Ali ibn Sino ham Gurganj "Dorul- hikma"sigi, olimlar qatoriga qo'shildi.

U yetuk olim Abu Abdulloh al-Xorazmiy haqida so'radi. Abu Abdulloh bir necha yil avval vafot etgan edi. Buni eshitib, marhum haqqiga duo qildi, so'ng taassuf bilan dedi:

– Hay, attang, men u kishini tavof qilib, duosini olmoqchi edim. Saltanat kutubxonasida ekanimda shunday kitoblarga duch keldimki, ulardan ko'pchiliginikishilar eshitmagan. Inson tanasidagi barcha tomirlar,muskullar, mushaklar, suyak, kemik va so'ngaklar haqida shu kishining asaridan bilib, to'la yodlab olgan edim. Darhaqiqat, u ar-Roziy kabi buyuk alloma edi! Uni Allohrahamat qilsin!

* * *

Abu Ali kelganidan ikki hafta o'tgach, Mansur ibn Iroq barchani yig'ib, xorazmshoh "Dorul-hikma" raisligiga Abu Rayhoni tayinlaganini ma'lum qildi.

Koshki, u raislikka Abu Rayhoni tayinlamasa edi! Farroshlar, oshpazlar, ta'minotchilar, keluvchi-ketuvchilar, bino ozodaligi, olimlar va mehmonlarning yeguligi, sarfiyotlar, kimning ne ila mashg'ulligi, rejalar, farazlar, xulosalar uni juda charchatardi. Tabiatan o'ta daqiq bo'lgani uchun har dirhamning sarflanishi, har kimning o'z ishini tugal ado etishiga ko'p vaqt sarflardi.

Bu ham ozlik qilganday, Xorazmshoh uni huzuriga chorlab, miroblikni topshirdi:

Mansur ibn Iroq sening Xorazm uchun tuzgan taqviming haqida gapirgan va uni bizga ko'rsatgan edi. Hosil mo'l bo'lishi uchun dehqonlar nimalar qilishi lozimligini aniq ko'rsatib o'tibsan.

– Taqviming bilan tanishgach va unga yozgan sharhingni o'qigach, Xorazm mirobligini senga topshirishga va Xorazmning barcha suvlari ustidan nazorat huquqini berishga ahd qildik. Bundan keyin mamlakat hosili sening bilimlaring va xulosalaringga bog'liq bo'ladi. Nima deysan?

Abu Rayhon shunday javob qildi:

– Tangri taolo hukmdorni yorlaqasin va sultanatinibоqiy qilsin. Albatta, men o'z yurtim uchun qo'limdankeladigan har qanday ishni qilaman va buning uchun umrimni ham, jonimni ham ayamayman. Mirobning bilimlari tufayli bu yerlarda ajoyib hosillar yetilishiga umidvorman. Men asov Jayhun tabiatini o'rganishga bel bog'layman va suvni adolat bilan taqsimlayman. Ammo bu ishni qilishim uchun menga bir qancha yordamchilar lozim bo'ladi.

– Roziman, ko'makchilar borasida sohibdevon al-Hasan bilan kengashasan, – dedi Xorazmshoh. – Alloh yordamching bo'lsin. Faqat bu ishlar sening falakiyat tadqiqotlaringga xalal bermasligi kerak.

– Allohga shukrki, u yulduzlarni kunduzi ko'rinnmaydigan qilib yaratgan, – deb javob qildi Abu Rayhon.
– Falakni tekshirishim uchun menga tun vaqtি yetib ortadi.

Abu Rayhon Xorazmni mo'l-ko'l barakot makoniga aylantirish orzusida edi. U sug'orish yo'llarini o'rganishga kirishib ketdi. Haqiqatan ham, mashaqqatli bu ishda o'zini sira ayamadi. Kunduzlari goh ulovda, goh yayov yurib eski ariqlarni izlasa, tunlari o'lchov asboblarini olib, yulduzlar va burjlar harakatini kuzatardi. Yam-yashil vodiylarning qurg'oq cho'lgaaylanishi sabablarini mulohaza qilib, "Xarob qiluvchi bu ishlarning sababi miroblar o'z ishining mas'uliyatini anglamaganida bo'lib chiqdi. E voh, johillikning nimalarga olib kelishini ko'r! U johillar yurtning eng katta boyligi suv ekanini o'ylab ham ko'rishmagan", dedi.

Qishda tog'larga qancha qor yog'adi? U qaysi payt erib, selga aylanadi? Buning uchun bulutlar, shamollar harakatini kuzatish lozim. Yetarli anqlikda taxmin qilinsa, u holda vohaga oqib keladigan suvning ko'p yokioz bo'lishini rejlash va uni shunga ko'ra taqsimlashmumkin bo'ladi. Abu Rayhon sohibdevondan bu ish uchun yuzdan oshiq yordamchi tayinlashini so'radi. Sohibdevon hayron bo'lib, buncha kishi nimaga kerakligini so'raganida, daryo bo'ylab kishilarni joylashtiramiz, ular suv miqdorini gulxanlar yordamida

bildirib turishadi, deb tushuntirdi. Sohibdevon bu ish qimmatga tushishini o'ylab, avvaliga ko'nmadi, so'ng rozi bo'ldi. Abu Rayhonning xabarlashish tarzi shunday edi: agar suv mo'l-ko'l bo'lsa, uchta gulxan, o'rtacha bo'lsa ikkita va oz bo'lsa, bitta gulxan yoqilardi. Shu tariqa, olis masofalardan turib, Jayhun suvi haqida ma'lumot olsa bo'lardi.

Abu Rayhon Xorazm bog'lari, dalalari va ekinzorlarini belgilab, har biri uchun qancha suvkerakligini hisoblab chiqdi. O'sha kunlar uni ko'rsangiz: ozib-to'zib ketgan, yonoqlari so'rrayib qolgan edi. Xudoga shukr, urinishlari o'sha yiliyoq o'z mahsuliniberdi: dala va bog'larda ikki baravar mo'l hosil yetildi. Bir kuni bizlar o'z bog'imizda bo'lib, Abu Rayhon esa hujrasida, hisoblari bilan mashg'ul edi. Bir qancha saroy kishilarini ot choptirib kelishdi-da, Xorazmshoh shaharni aylanish uchun saroydan chiqqanini va biz tomonga kelayotganini aytishdi. Men bu haqda Abu Rayhonga xabar berdim. U darvoza oldiga chiqqanida Xorazmshoh yetib kelib, otdan tushayotgan edi. Abu Rayhon chiqib kelib, zinhor tushmasligini iltimos qildi. Shunda Xorazmshoh:

– Bilim barcha mulklarning eng a'losidir. Barcha unga intiladi, uning o'zi kelmaydi, – dedi. – Sen tufayli mamlakat farovon bo'ldi. Azbaroyi xudo, birgina kishi shuncha ishlar qila olishi, darhaqiqat, ibratlidir. Men senga minnatdorlik bildirgani keldim.

Shunday deb, u Abu Rayhondan bir masalaning yechimini so'radi. Javob olgach, xursand bo'lib:

– Agar bu dunyoda shunday qonunlar bo'l maganida, huzuringga kelmasdim. Ko'rib turganingdek, ostonangga tashrif buyurdim, chunki men emas, sendagi bilim yuqori turadi, – dedi.

Xorazmshoh Ma'munning yuksak axloqiy husni shundan iborat ediki, hech qachon tilidan nojo'ya so'zlar chiqmasdi. Shoh xayrlashib jo'nab ketgach, Abu Rayhon unga shuncha yillik xizmati mobaynida biror marta uning og'zidan dashnom keltiruvchi so'z eshitmaganini aytdi.

– Tingla, ey Abu Fazl, – dedi. – Senga bir hikmat aytaman. Uni yodlab ol. Bilim xuddi imon kabitdir, imonning qanotidir. Imonli kishi imoni ziyoda bo'lishini istab pirga, shayxga, olimga intiladi, bilim istovchi kishi ham bilimining ziyoda bo'lishini istab o'zini har yonga yo'llaydi. Bu xuddi tashna kishi suv izlagani kabitdir. Bilim turli maxfiy dargohlarda o'zining sohibini kutadi va chorlab turadi. Buning ziddini o'ylab ko'rsang, yanada oson anglab olasan: johil kishi jaholatini orttiradigan narsalarga mehr qo'yadi. Fosiq kishi qabihliklar ortidan yuguradi. Xorazmshohning ostonamizga kelishi uning javharida bilimga tashnalik borligidan darakdir.

* * *

Oradan uch oy o'tib, Abu Rayhon belgilagan kun keldi. Shu kuni bizlar kerakli asbob-uskunalarini olib, Bodg'is tepaligiga qarab ketdik. Ikki xizmatkor aravani to'xtatib, chodir tikishdi. Men chodir tevaragiga junarqonni aylantirib o'rab chiqdim. Bu usulni cho'ponlar qo'llar edilar, ularning aytishiga ko'ra, turli zararli hasharotlar yung isidan hurkib, yaqin kelmas emish.

Abu Rayhon quyosh balandligini o'lchadi, armila bilan uning og'ishini tekshirdi. Bu ish bilan to kun tugashigacha mashg'ul bo'ldi. Quyosh ufqqa ohista yonboshlayboshladi. Sharq tomonda shom yulduzi jimirladi. To'q moviy tus olgan falak xuddi to'nkarilganday bo'lib qoldi. Qizigan qum isini anqitib g'ir-g'ir shabada esar, qulorra urilib g'uvillardi. U maysalar shitirini kuchaytirib yubordi. Oqshom qo'nishi bilan sahro tungi tovushlarga to'ldi.

Abu Rayhon chodirimiz yoniga keldi-da, baralla kulibyubordi.

Kulgisining sababi nima ekan deb chopib borsam, bir cho'l chayoni dumini yuqori ko'tarib, arqondan o'tolmay turgan ekan.

Sen mening Qiyotda Abul A'lo Gurganjiyning cho'lig'i bo'lginimni unutdingmi? Bu jonzot hidni sumi bilan sezadi. U – bolaligimning yodgori, kichik yoshdaligimda ularning bunday tutumini ko'p kuzatganman. Agar tegmasang, to tonggacha shunday turaveradi. Qaytib ketay desa, o'lja hidi qo'ymaydi, ilgarilay desa, yung isi qo'rqiqtadi.

Xizmatkor kelib, uni ikki cho'p orasiga qisib ushlagan edi, Abu Rayhon:

– Qo'y, o'ldirma, – dedi. – Parvardigor uni shunday yaratibdi, Alloh bergen umrini yashaybersin.

Xizmatkor uni uzoqqa, tikanlar orasiga otibyubordi.

Shom qo'nmasidan, mag'rib tarafdan sariq barkashday bo'lib oy ko'tarildi.

– Sirlaringni ochaqol, olam kechalarining sirli malagi! – dedi Abu Rayhon unga. – Bir ozdan so'ng sen Olamlar Yaratuvchisi insonlarni ogohlantirgan ulug' hodisaga sabab bo'lsan. Ajabo, bundan o'zingning xabarining bormi ekan?

Qog'oz-qalamni allaqachon tayyorlab qo'ygan edim. Ichkariga kirib, qoq go'sht va suv olib chiqdim. Tanovul qilib bo'lqanimizdan so'ng:

– Hozir boshlanadi! – dedi Abu Rayhon.

Darhaqiqat, saldan so'ng oyning bir chetiga bilinarbilinmas soya tushdi. So'ng ko'z ilg'ammas tezlik bilan siljij boshladidi. Yana bir oz vaqt o'tgach, bir tomoni kemtik limuga o'xshab qoldi.

Abu Rayhon har daqiqada u ulug' soyaning siljishini o'lchar va usturlob ko'rsatkichlarini yozib borardi. Soya tobora siljib, Oyning yarmini to'sib qo'ydi. Yana ma'lum vaqt o'tgach, u to'la qoraydi, faqat, oqish ingichka aylana bo'lib, nur gardishigina qoldi, xolos.

– Suv keltir, chanqadim, – dedi Abu Rayhon, yozuvlarida davom etib.

Xizmatkorlarga qarasam, ikkalovi ham cho'k tushib, xusuf namozini ado etayotgan ekanlar. Xayolimga "Osorul boqiya" dagi Oy utilgan chog'larda kishilar tomga chiqib dod-faryod ko'tarishi haqidagi xabarlar keldi. Tangrimga shukrlar aytib, ularga xalal bermay, o'zim borib, bir ko'zachada suv olib keldim.

Bu orada Oy falak toqida sezilarli ravishda yuksaldi va tikkaga yetib-yetmasidan, soya uning yuzidan yig'ishtirila boshladidi. Yana shuncha vaqt o'tgach, samoda sariq oltinday bo'lib, yolg'iz o'zi yaraqlab qoldi.



Bizlar shu kecha Bodg'is tepasida tunadik. Abu Rayhon tonggacha uxlamadi, yulduzlar vaziyatlarini birma-bir yozib oldi. Yuz-ko'zida mammunlik bor edi. Go'yo yulduzlar bilan so'zlashardi. Allaqachon yer yuzida emas, ko'klarda edi. Parvardigor yaratiqlarining jozibasi uni mahliyo qilardi.

* * *

Tong yorishganida ortimizga qaytar ekanmiz, Abu Rayhon kechagi hisoblarini menga uzatdi.

– Bularni saqlab qo'y, – dedi. – Al-Buzjoniyning javoblari kelganida taqqoslab ko'ramiz. Ungacha esa kurrai arz ustidagi ishlarimizni davom ettiramiz. Men aylanuvchan shift yasashga Mansur ibn Iroqniko'ndirishga muvaffaq bo'ldim.

Gurganjga qaytganimiz hamono "Dorul-hikma"ga yo'l oldik.

Keng va yorug' xona o'rtasida yarim doira yer kurrasi turardi. Har galgi o'lchovlardan so'ng Abu Rayhon unga kerakli tuzatishlarni kiritib, masofalarni aniqlashtirardi. Buni shunday aniqlikda qildiki, misol uchun, Gurganjdan Hirotgacha masofani aniqlash uchun pargor¹ kifoya qilardi. Abu Rayhon unda sahrolar, tog'lar, ko'llar va daryolar tarhimini ham chizdirdi.

Aylanuvchan shift esa, uning nazdida, falak toqining aksi bo'lmos'i lozim edi. Moviy tusli ushbu gumbaz bitgach, unga yulduzlar qadab chiqildi, ular yiltirabko'rinishi uchun sadaf kabi oq shisha qo'llanildi. Bular uchun ancha-muncha mablag' lozim bo'ldi, chunonchi, Zuhal va Mirrix uchun kattaroq shisha lozim edi. Butun dunyoda shisha ustalari yahudiylar bo'lib, ular o'z sirlarini hammadan yashirishardi. Rangli shisha yasash mashaqqatlisi ekanligini va qimmat bo'lishini aytishganida, Abu Rayhon ularga:

– Jayhun bo'yiga borsangiz, sadaf qumini ko'rasiz. Men sizga aytgan shishani o'sha qumni eritib

¹ Pargor - sirkul.

tayyorlasangiz, sadafdan ham oq bo'lib chiqadi, lekin nurni akslantirishi uchun qirralar ishlappingizga to'g'ri keladi, – deganida, yahudiylar uning bu ishni bilishiga hayron bo'lib qolishdi.

Gumbaz ishlari nihoyasiga yetar-yetmas, al-Buzjoniydan javob keldi. Abu Rayhon katta qiziqish bilan Buzjoniy hisoblarini bir-biriga taqqoslab, ruhlanib xitob qildi:

– Allohga shukr! Bundan mukammalroq hisob yer yuzida aslo yo'q. Gurganj bilan Damashq orasidagi vaqt farqi bir soatu besh daqiqa ekan! Bu mening beshinchi va oltinchi iqlim kengligini o'lchashimga to'la mos keladi! Demak, har iqlim orasini bir soat deb hisoblasak, to'g'ri yo'lni tutgan bo'lamiz!

U qalam bilan kurrai arzga ko'ndalangiga shu o'lchovga mos keladigan chiziqlar tortdi-da, xitob qildi:

– Ey Abu Fazl! Ana endi bu dumaloq xaritaga qarab, yer yuzining bizga ma'lum shaharlari orasidagi masofani aniq o'lchay olasan. Katta shaharlarni belgiladik, istasang, kichik shaharlarni va hatto qishloqlarni ham belgila! Bu ishni bajarish inson bolalari orasida Batlimusdan keyin menga nasib bo'ldi! Biroq, Batlimus ham iqlimlar kengligini men singari aniq o'lchay olganemas!

Kurrai arz va gumbaz ishlari tamomlangach, uni av- valo Mansur ibn Iroq va Abu Sahl Masihiy kelib ko'rdi. Ular chiziqlar tortilishini va iqlimlar belgilani- shini nuqsonsiz deb topishdi. Bu vaqtga kelib Mansur ibn Iroq keksaygan, quloqlari tikkayib, burni cho'zi- lib, nigohi sokinlik kasb etgan nuroniylar cholga aylan- gan edi.

– Sen bu ishni o'ta aniqlik bilan bajarding. Buninguchun senga ming ofarin! Ammo bu bilan cheklanib qolishing yaramaydi.

Ular ketishgach, Abu Rayhon dolonni bir oz aylanib yurdi, so'ng xushhol kayfiyatda yonimga kelib:

– Sen Mofanno haqida eshitganmiding? – deb so'radi.

– Yo'q, u kim?

Shunda Abu Rayhon menga Mofanno hikoyasini so'zlab berdi.